

## O‘ZBEK TILIDAGI SHAXS MA’NAVIYATINI IFODALOVCHI VOSITALARNING IZOHLI LUG‘ATLARDA BERILISHI

Ibodova Malika Gulmurodovna

Qarshi davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13734090>

**Annotatsiya.** Adiblarimiz o‘zining butun hayotini insonlarning ma’naviy taraqqiyoti yuksalishiga, xalqning ahilligi va farovonligini ta’minlashga, ilm-fan, san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishladi. Zero, ma’naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati, ya’ni mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, undan zavqlanish, “yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”. Xususan, mumtoz adiblarimizning adabiy me’rosi ana shunday mavzular bilan yo‘g‘rilgan. Biroq bu leksemalar amaldagi lug‘atlarda aks ettirilmadi.

Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi shaxs ma’naviyatini ifodalovchi vositalarning izohli lug‘atlarda berilishi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so‘zlar:** ma'naviyat, ot, *duoxonlik, do'stparvarlik, haqqoniylik, uyatli, ixlosli, muhabbatli, nafratsiz, e'tiborli, beparvolik, beshafqat, sadoqatlilik, saxiylik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, farosatlilik, vatanparvarlik, rahmdillik, rostgo'ylik, axloqsizlik.*

Mustaqillik tufayli barcha sohalarda bo‘lgani kabi lug‘atshunosligimizning imkoniyatlari kengaytirildi. Undagi kamchiliklar bartaraf etila boshladi. Buni “ma’naviyat” umumiy ma’noli atov birliklari misolida ko‘rib o‘tamiz:

1) 2 tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da(1981) “ma’naviyat” leksik kategoriyasiga oid leksemalar 1500 dan ortiqni tashkil qilgan bo‘lsa, 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa bu ko‘rsatkich 3000 dan oshdi. Bundan ko‘rinadiki, sho‘ro davrida leksik kategoriyaga kiritilmagan birliklar yangi izohli lug‘atda son va sifat jihatidan ortganligini bilish mumkin. Buni so‘z turkumlari kesimida aks ettiradigan bo‘lsak, natijalar namoyon bo‘ladi.

2) “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (2020-yil) “ma’naviyat” leksik kategoriyasiga bevosita va bilvosita tegishli bo‘lgan ot turkumiga oid ko‘plab leksemalar faol tarzda ortganligini ko‘rish mumkin. Bu ot so‘z turkumi ichida quyidagicha tasniflanadi:

– “ma’naviyat” leksemasining o‘zi yangi leksema sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga (2006 y) kirib kelganligi;

– ma’naviyatga tegishli faoliyat-jarayon otlari yasallishining ortganligi: *or-nomuslilik, duoxonlik, do'stparvarlik, haqqoniylik, uyatli, ixlosli, muhabbatli, nafratsiz, e'tiborli, beparvolik, beshafqat, sadoqatlilik, saxiylik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, farosatlilik, vatanparvarlik, rahmdillik, rostgo'ylik, axloqsizlik, xolislik;*

ma’naviyatga tegishli shaxs otlarining lug‘at so‘zligi sifatida kiritilganligi: *avliyulloh, aziz-avliyo, umra, murosasozlik.*

otning o‘z vazifa va ma’nosidan tashqari lug‘aviy ma’no ham kasb etadigan shakllari: *po‘lat, temir, metin* so‘zlari – *sabr, chidam, toqat* leksemalari o‘rnida qo‘llanib, nutqiy boyish kuzatildi. Sho‘ro davri kishilarning nutqida *namozxon* leksemasi shakl va ma’no jihatidan taqiqlanganligi va bu leksema yangi lug‘atlarda lisoniy va nutqiy ishlatilishi orqali boyiganligini ko‘rish mumkin (20 dan ortiq yangi ma’no kasb etishini oldingi o‘rinlarda qayd etdik).

“ma’naviyat” leksik kategoriyasiga tegishli dubletlarning ma’naviy faollashganligi: *imon – iymon, adablilik – adabli, aduliq – aduvliq, odob – adab, astahidil – astoydil, alhamdillla(h) – alhamdulillah, Alloh – Olloh, didli – didlik, zako – zakiy.*

qismlarining juft va takroriyiligiga asoslangan leksemalarning ortganligi bilan izohlanadi: *jon -dil, jon-u dil, jabr-u-jafu, jabr-zulm, yolg’on-yashiq, yengil-yelpi, yengil-yelpilik;*

ma’naviyatga oid arxaizmlarning kiritilganligi: *javonmard, qone, axiylik, jonfido, hilm, xudkom, xiyonatgar, xabis, fusun, fusaho, fuzalo, fojir, fikrat, farrohnok, fazihat, tartibot, tarbiyat, safolat, raiyatparvarlik, otin, osiy, jobr, jadda, yoziq, dasisa, boqimonda, bid’at, behbudlik, badgir, huzun, hosid, hiddat;*

ma’naviyatga oid istorizmlarning kiritilganligi: *g’asb, g’ayrimashru, g’azot, qat’an, qarobat, yag’mo, e’timodnoma, shaxsiya, shaloq, xo’ja, xushatvor, xunolud, xunbor, xudotars, sharorat, ug’on, tahammul, tafriq, tariqat, rishvatchi, rishvatxo’rlik, riboxo’r, najib, foydali, mutavoze, mustahqiq, manhuz, maloika, mazammat, kajraftor, irshod, ijtinob, zamir, afif, anduh.*

ma’naviyatga oid sheva so’zlarining ijobiy va salbiy kiritilganligi: *jajaqlamoq, badgo’y, bodilanmoq, botil, bulg’amoq, go’psangi, davkash, dagir, zo’ravor, xabarkash, xabarkashlik, cho’changlamoq, esaymoq, yalhak, o’qil, g’alvaymoq, g’ujur, havasaki, g’ujurli.*

“Tilshunoslar tomonidan leksik sathdagi abstraktlik/konkretlik muammosini yechishga juda ko’p urinishlar bo’lgan va bunday tadqiqotlar hozirgacha davom etmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarning ko’pligiga qaramasdan abstrakt va konkret leksikani aniq chegaralash xususida yakdil fikr mavjud emas. Abstrakt so’zlar tadqiqidagi turlicha xulosalarga tekshirish obyektining ontologik murakkab tabiatga ega ekanligi asosiy sabab deb ko’rsatiladi”. Ot so’z turkumidagi asosiy leksemalar ana shunday turdagi mazmundagi bazadan iborat.

“Ma’naviyat” leksik kategoriyasiga oid birliklar sifat turkumiga oid so’zlar miqdor jihatdan sermahsul va u alohida tahlilni talab qiladi. Shaxsning ma’naviy qiyofasining ushbu leksemalar orqali aks etishi bunga yorqin misol: *adabli, beka-u ko’st, farishtasifat, xudojo’y, hayochan, hamdam, yaxshi, yaxshi-yomon, barkamol, mehribon, mehnatkash, baxil, badfe’l, befarosat, gunohkor, imonsiz, ahmoq, adabsiz, dinsiz, yengiltabiat, yolg’on, yomon, luqmaxo’r, pastkash kabi.* Bunday atov birliklarni semantik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

a) shaxs ma’naviy sifatini ifodalovchi ijobiy birliklar: *adabli, beka-u ko’st, farishtasifat, xudojo’y, hayochan, hamdam, yaxshi, yaxshi-yomon, barkamol, mehribon, mehnatkash;*

b) shaxs ma’naviy sifatini anglatuvchi salbiy birliklar: *baxil, badfe’l, befarosat, gunohkor, imonsiz, ahmoq, adabsiz, dinsiz, engil tabiat, yolg’on, yomon, luqmaxo’r, pastkash kabi.*

O’zbek tilida “ma’naviyat” maydoni va uni tashkil etuvchi umumiy semali atov birliklar tizimi til sathida alohida mustaqil tizimga ega. Ushbu atov birliklar differensial belgisiga ko’ra “ijobiy” va “salbiy” semasiga ega bo’lgan *ma’naviyat* va *ma’naviyasizlik* makroguruhlarini hosil qiladi, umumiy atov birliklar mikroguruhlariga ajraladi. Ushbu guruh leksemalari o’zining birlashtiruvchi va farqlovchi semalari asosida birlashib “ma’naviyat” maydonining ijobiy va salbiy mavzuiy guruhlarini hosil qiladi.

“Ma’naviyat” maydonining mavzuiy guruhleri ichki semasi bilan guruhlariga bo’linadi. Shaxs ma’naviy sifatlarini ifodalovchi leksemalar ham umumiy semasiga ko’ra quyidagi mavzuiy guruhlariga bo’linadi va bunday birliklar so’z, birikma, murakkab birikma shaklida uchraydi. Yanada aniqroq qilib ta’kidlaganda sodda, qo’shma, juft va birikmali, leksik-frazeologik birikmalar, yoyiq izohlovchilar qo’llanishi ham mumkin.

Biroq ma'naviy munosabat umumiy semalar orqali bog'langan bo'ladi. Ular esa, o'z navbatida, "ma'naviyat" maydonining shakllanishiga hissa qo'shadi.

Ushbu bobda olamning o'zbek lisoniy manzarasida "ma'naviyat" umumiy semali birliklar leksik-semantik guruh (LSG)larining til sistemasida tutgan o'rni, mazmun-mohiyati, lisoniy ahamiyati, akademik, ommabop, o'quv filologik lug'atlardagi talqini, tarixiy-etimologik va derivatsion xususiyatlari hamda ushbu guruh tarkibidagi leksemalarning o'zaro munosabatini yoritish maqsad qilingan. "So'zlarning mavzuviy guruhlari, so'zlarning lug'aviy-ma'naviy guruhlari, leksikaning stilistik qatlamlari, so'zlarning tarixiy-etimologik qatlamlari singari tasniflardan keng foydalanib kelinadi".

Ushbu faslda shaxs ma'naviy xususiyatlarining ijobiy xislatlari mumtoz asarlar misolida ham yoritilgan.

Bunday didaktik asarlar orqali insonlarning ma'naviy sifatlarini, xulq-atvorini, ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlari tarix va bugungi kun leksemalarining umumiy xususiyatlari batafsil yoritilgan. Xususan, shaxs ma'naviy sifatlarining ijobiy xususiyatlarini yoritishda quyidagi guruhlarga bo'lib tasniflash mavzuning mohiyatini yanada kengaytiradi.

**"Axloq"** semali sifatlar: ushbu guruhga oid leksemalar "shaxsning ma'naviy talablari, ma'naviy hayot hodisasi" umumiy semasi bilan *adabli, hayochan, oqil, insofli, orif, dono, zukko* kabi leksemalar orqali shakllanadi va kengayadi.

**"Mukammallik"** semali sifatlar: mumtoz asarlarning eng asosiy xususiyatlaridan biri komil inson tarbiyasidir. Komil inson sifatlarining asosiy xususiyatlarini ushbu guruhga oid leksemalar tashkil qiladi.

Mukammallik ma'naviy guruhi "insonni ma'naviy yuksaltiruvchi, ma'naviy takomillashtiruvchi" umumiy semasi bilan *bekamu ko'st, farishtasifat, pok, pokiza, mard, tirishqoq, zukko, oq ko'ngil, bag'rikeng* sifatleri orqali guruhni shakllantiradi.

**"Adolat"** semali sifatlar. Mumtoz poetikamizning qahramonlariga xos bo'lgan mavzu, turli hikoyalar bilan bu mavzuni yoritishga chin dildan bel bog'langan. Xususan, "adolat" ma'naviy guruhi "odil, teng, baxtli, ezgu, ozod" umumiy semalari bilan mavzuviy guruhni shakllantirgan hamda adiblarning adolat haqidagi qarashlarini yoritib bergan: *odil, adolatli, to'g'ri odam, odil guvoh, adolatli shoh, tenglik, odillik*.

**"Sadoqatlilik"** semali sifatlar. Shaxs ma'naviy sifatlarida sadoqat masalasi ma'naviyatning asosiy bo'g'inlaridan biri. Har qanday jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy masalalarini tizimga solishda sadoqat tushunchasi har qaysi davrda muhim sanalgan. Ushbu guruh "vafodor, sodiq, samimiy, mehribon" umumiy semasi bilan *sadoqatli, hamdam, yaxshi do'st, vafodor, chin do'st, jonfido* atov birliklari bilan mavzuga taalluqli bo'ladi;

**"E'tiqod"** semali sifatlar. "E'tiqod – insonning hayotdagi pozitsiyasi, uning turmush tarzi mazmuni xuddi shu komponentning mustahkamligiga, barqarorligiga bog'liq. Chinakam bilimga, turmush sinovlaridan o'tgan g'oyaga, nazariyaga asoslanmagan e'tiqod g'ayriilmiy va puch e'tiqod ekanligi Navoiy asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu guruh "chin dildan berilmoq" umumiy semasi bilan *xudojo'y, ilohiy, taqvodor, vijdonli, insofli, iymonli* leksemalari orqali mavzuviy guruhga tegishli.

Yuqoridagi bo'linishlar orqali nutqimizdagi har qanday borliq hodisasini lisoniy idrok etishga, uning tub ma'nosi ongda chuqur o'rin egallashiga, ma'naviyat maydonining mohiyatini to'la ochishga xizmat qiladi. Bu esa ma'naviyat tushunchasining ijtimoiy va shaxsiy ongda qay darajada rivojlanib, faollashib borishi bilan belgilanadi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan

halollik, samimiylik, vijdon, poklik, mehr-oqibat kabi tushunchalar milliy ma'naviyatimizning mohiyati, uni shakllantiradigan asosiy mezonlaridan ekanligini anglash mumkin.

### References:

1. Эргашев И. Миллий истиқлол ғояси. – Тошкент: Академия, 2005. – Б. 53.
2. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт модели. Монография. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 192 б.
3. Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 46.
4. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008.
5. Ҳамраева Ш. Ўзбек тили морфологик анализатерининг лингвистик таълимоти. – Тошкент: Слобедит, 2020.
6. Имомназаров М., Эшмухамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент: Ислом университети, 2000. – 360 б.
7. Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
8. Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 140.